

YALANGTO‘SH BAHODIR –MOVAROUNNAHRNING YIRIK SIYOSIY VA MADANIYAT ARBOBI

Mamatov Bektosh Tolibjon o‘g‘li,
1-kurs magistrant,
Samarqand davlat universiteti, Samarqand shahar
e-mail: bektosh.mamatov@bk.ru

ilmiy rahbar: t.f.d.dots. **G.Normurodova**

ANNOTATSIYA

XVI-XVII asrlar o‘zbek xalqi davlatchiligining shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrdagi sulolalar, ayniqsa yirik davlat arboblari tarixining o‘rganilishi, ular shaxsining ochiqlanishi bugungi kun taraqqiyoti uchun muhim omildir. Ushbu maqolada yirik siyosatchi, bunyodkorlik, madaniyat va ilm-fan homiysi Yalangto‘sh Bahodir faoliyati muhokama qilinadi. Uning shayboniylar va ashtarxoniylar davrida siyosatdagi o‘rni va Samarqandda amalga oshirgan keng bunyodkorlik ishlariga to‘xtalib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: *Yalangto‘sh, olchin, pir, otaliq, nuyon, amir shayboniylar, ashtarxoniylar, Movarounnahr, Balx, Dahbed, madrasa, abjad, Registon, maqbara, Sherdor, Tillakori.*

So‘ngi yillarda tarix faniga bo‘lgan e‘tibor, bu soha vakillarining yanada kengroq ilmiy faoliyat olib borishga undamoqda. Shu bilan birgalikda, Prezidentimizning ilk kunlardanoq milliy meros, ma‘naviyat, adabiyot, san‘at, ilm-fan va ta‘limga bo‘lgan e‘tiborni kuchaytirish, ularni zamon ruhiga moslab davlat siyosati darajasiga ko‘tarish borasidagi yuritayotgan say-harakatlari yirik olimlarning, yosh tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlashda o‘z aksini topmoqda desak xato bo‘lmaydi. Xalqimizga yurtimizda yashab o‘tgan tarixiy shaxslar, ularning vatan taraqqiyoti, mustahkamligi, ilm-fan va madaniyat sohalariga qo‘shgan hissasi haqida to‘liqroq va aniq bo‘lgan ma‘lumotlarni berish bugungi kun tarixchilarining asosiy vazifasi bo‘lib hisoblanadi. Bunda tarixchilar o‘tmishda yashab o‘tgan, yirik siyosat arboblari uchun urg‘u berishga harakat qilishadi. O‘tmishi uzoq asrlarga borib taqaladigan tariximizda bunday shaxslar, sarkardalarni ko‘plab uchratishimiz mumkin. Ulardan biri– Samarqanddek muqaddas yurtda yashab, o‘zbek davlatchiligiga salmoqli hissa qo‘shgan, nomi yeti iqlimga mashhur mohir sarkarda va yetuk davlat arbobi Yalangto‘sh Bahodirdir.

Yalangto'sh Bahodir 1576 (ba'zi ma'lumotlarda 1578) yilda Nurota hokimi oilasida tavallud topgan bo'lib, olchin¹ urug'i yetakchilaridan bo'lgan Boyxojibiyning o'g'lidir². Uning zamondoshi va so'z ketayotgan davr tarixi bo'yicha o'ta qimmatli asar – “Bahr al-asror fi manoqib al-ahyor” (“Olijanob kishilar botirligiga oid sirlar dengizi”) muallifi Mahmud ibn Valining yozishicha, amrning asl ismi Xatoy Bahodir, Yalangto'sh esa uning laqabi bo'lgan. Tarixda bu shaxs Yalangto'sh ibn Boyxojibiy, Yusuf Yalangto'sh, Abdukarimbiy, Nizomiddin kabi ismlar bilan tilga olingan. “Yalangto'sh”³ (yalang ko'krakli, ochiq ko'krakli botir ma'nosida) janglarda ko'kragini qalqon yoki qalchug'o bilan yopmagan botir sifatida ushbu nomni olgan. U otasi Boyxojibiy bilan Xoja Hoshim Dahbediy (Mahdumi A'zamning nabiralariga) oldiga kelib, qo'l berib murid tushishadi va uning tarbiyasiga kiradi. Keyinchalik, piri Xoja Hoshim uni harbiy mahoratini oshirish uchun Dinmuhammad xizmatiga yo'llaydi. Yalangto'sh Bahodirning otasi shayboniylar sulolasi davrida saroy xizmatida bo'lganligi tufayli, u ham hukmdor sulola vakillari xizmatida o'sadi. U dastlab shayboniylardan Abdullaxon II e'tiboriga tushadi va uning qo'llab – quvvatlashi bilan maxsus harbiy maktabda o'qiydi. Dastlabki yillarda, Yalangto'sh Bahodir mamalakat oldidagi munosib xizmatlari evaziga 1593-1595 yillard mobaynida Bulung'ur, Loyish, Kattaqo'rg'onda tumanboshi lavozimida xizmat qiladi.

Yalangto'shbiy Bahodir yoshligidan qo'rqmas, dovyurak, jasur bo'lib voyaga yetadi. U harbiy jang san'atlarini puxta egallaydi. O'zining shijoatli va ilmga bo'lgan qiziqishi bilan ko'zga ko'rina boshlaydi. Shu sababli bu pahlavonga “Bahodir” sifatida qarala boshlangani bejizga emas. Mahmud ibn Valining “Bahr al-asror fi manoqib al-ahyor” asarida u “jasur nuyon, ish bilgan amir” sifatida ta'riflanadi⁴. U dastlab Buxoro madrasasida ta'limo lib, arab va fors tillarini puxta egallaydi, 1595-1598 yillarda esa Bag'dodda tahsil oladi.

U 19 yoshidan boshlab Buxoro xoni Dinmuhammad homiyiligiga o'tadi. Yalangto'sh Bahodir bu sulolaga sodiq xizmat qiladi va o'zining botirligi bilan boshqa sarkardalardan ajralib turadi. U shu paytdan boshlab harbiy va boshqaruv ishlarini mukamal o'rgana boshlaydi. Buxoro xoni Boqi Muhammad davrida Yalangto'shbiy maslahtchi sifatida chegralar xavfsizligini ta'minlashga va davlat boshqaruvi tizimini tartibga solishga o'zining sezilarli hissasini qo'shadi.

XVII asr boshida ashtarxoniylar sulolasi vakillari o'rtasida siyosiy kurash kuchaya boshlaydi. Shunday sharoitda, Nodirbek, Bek o'g'li Muhamamd Boqi qalmoq hamda Xoja Hoshimlar qatorida Yalangto'shbiy Bahodir Imomqulixonni (1611-1642)

¹ Qozoqlar, boshqird, Qozon tatarlari, Qrim va Shimoliy Kavkazno'g'aylari, qoraqalpoq va o'zbeklar tarkibiga kirgan qadimiy yirik turkiy urug'.

² Абу Тоҳирхожа Самарқандий. Самария. Б.27. www.ziyo.com кутубхонаси

³ O'zbek tilining izohli lug'ati. 2008-B.105

⁴ Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар.- Тошкент, 1994.- Б.228.

qo'llab–quvvatlay boshlaydilar. Natijada mag'lubiyatdan qochib Vali Muhamamd Eronga Shoh Abbos huzuriga boradi va undan taxtni qaytarib olish uchun yoradm so'raydi. Shoh Abbos o'zining 80 ming kishilik qo'shinini Imomqulixonga qarshi safarbar etadi⁵. Bundan xabar topgan Imomqulixon Balxga qochishni mo'ljallab, Qarshiga borib o'rnashadi. Aynan mana shu vaziyatda, Yalangto'sh Bahodir Samarqanddagi vaziyatni o'z qo'liga olib, barcha saroy amir va ulamolarni birlashtirib, ularni Imomqulixonni qo'llash va Eron askarlariga birgalikda qarshi kurashni boshlaydi. Kuchlar teng bo'lmaganligi sababli Imomqulixon Yalangto'shbiy va boshqa ulamolar bilan maslahatlashib qozoq xonlari Abulay sulton va Ishim sultonlardan yordam so'raydi. Lekin, ulardan Vali Muhamamd ham yordam so'ragan edi. Natijada, Imomqulixon ikki dushmanga qarshi kurashishga majbur bo'ladi. Yalangto'shbiy va Shukurbiy saroy bilan birgalikda harakat qilish natijasida ular ikki dushman ustidan g'alabaga erishadi.

Buning evaziga Imomqulixon davlat boshqaruvini qo'lga olishga yordam bergani uchun Yalangto'sh Bahodirni 1612-yilda Samarqand hokimi etib tayinlaydi. Keyinchalik u otaliq vazifasiga tayinlanadi. O'ttiz yildan ortiq vaqt davomida u Imomqulixon bilan xonlik hududlarini mustahkamlash uchun bir nechta janglarda qatnashib g'alaba qozonadi. Bunga misol qilib, Vali Muhamamdning o'gli Rustam Sulton bilan 1612-1622, 1623, 1631-yillardagi janglarni misol qilib keltirish mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, Vali Muhammad, o'g'li Rustam sulton va bunga aloqador bo'lgan Eron bilan tashqi siyosatdagi muammolar Yalangto'sh Bahodirning faol harakati bilan xal qilinadi.

1642-yilda Imomqulixon ko'zi xastalanib vafot etadi. Shunda, Yalangto'shbiy boshchiligidagi amirlar Balx viloytida hukmronlik qilayotgan ukasi Nodir Muhammadni Buxoroga chaqirib, uni xonlik taxtiga o'tqazishadi⁶. Uning davrida ham Yalangto'sh Bahodir otaliq lavozimini saqlab qolib, faoliyat yuritadi va unga hozirgi Afg'oniston hududidagi bir qator yer-suvlar tortiq qilinadi⁷.

Nodir Muhamamd taxtda ko'p vaqt o'tirmadi, uning Qarshi atrofidagi shikorda yurganidan foydalangan fitnachi amrlar taxtga uning o'g'li Abdulazizxonni o'tqazishadi. Shu pallada Yalangto'sh Bahodir siyosat maydonida namoyon bo'la boshladi. U Abdulazizxonni (1645-1681) qo'llab – quvvatlaydi. Natijada, qo'shni sarhadlarga urush olib boradi. Jumladan, Boburiylar imperiyasiga qarashli bo'lgan Qobul va Eronga ham yurishlarni amalga oshiradi. Chunonchi, 1648-yilda

⁵ Мухаммад Юсуф Мунши. Муқимханская история. Перевод с перс-таджик., прим. И указ. А.А. Семенова. Т.1956.-С.81-82.

⁶ Ахмедов Б. история Балха.(XVI- первая половина XVIII в).-Ташкент: Фан>>1982.-С.109.

⁷ Азамат Зиё. Ялангтўш Баҳодир – илм-фан ва маданият ҳомийси// Янги Ўзбекистон. 2021 йил, 3-март.44-сон

Abdulazizxonning 200 minglik qo‘shini tarkibida Balxni Boburiylardan qaytarib olish jangida qatnashib g‘alaba qozonadi. Bundan tashqari, Ashtarxoniy davri uzluksiz isyonkor qabilalar va ularning boshliqlarining o‘zaro kurash va isyonlari bilan xarakterlanadi. Bu isyonlarning bostirilishida Yalangto‘shbiy yetakchilik qiladi. U umumiy xisobda qirq yil – 1612-1632, 1633-1642 va 1645-1656 yillarda, aniqrog‘i uch nafar ashtarxoniy hukmdorlar davrida Samarqandni boshqargan edi. Shuningdek, orada hozirgi Afg‘oniston markaziy hududiga to‘g‘ri keladigan tarixiy Kohmard viloyati hokimi ham bo‘lgan.

Bahodir Yalangto‘sh o‘z davrining eng badavlat kishilaridan bo‘lib hisoblanar edi. Mahmud ibn Vali Yalangto‘shni hukmdordan keying o‘rinda turuvchi badavlat shaxs deb ta’riflaydi, uning mol-mulki miqdorini esa davlat xazinasi bilan qiyoslaydi.⁸ Uning Samarqand, Kesh viloyatlari, hozirgi Afg‘onistonda ko‘pdan-ko‘p ekin maydonlari, chorva yaylovlari bo‘lgan. Yalangto‘sh Bahodirning siyosiy, xarbiy, iqtisodiy qudrati, homiylik ko‘lamining ovozi yurt tashqarisida ham tarqalgan edi. Shu bois, har yili Hindiston sarkorlari, Qandahor, Xuroson viloyatlari hokimlari, qirg‘iz, qalmaq va qozoq yo‘lboshchilari, Qoshg‘ar xonlari, xatto Tibetdan unga qimmatbaho sovg‘a-salomlar jo‘natib turilgan.⁹

Bahodir Yalangto‘sh 1656-yilda 80 yoshida vafot etadi va o‘zining vasiyati bo‘yicha, uni Dahbetdagi Mahdumi A‘zam xonaqohiga, piri bo‘lmish Xoja Hoshim qabrinig oyoq tomoniga dafn etadilar. Uning farzandlari ham shu yerda dafn etilgan.

XVI asrda Shayboniy davrida poytaxt Samarqanddan Buxoroga ko‘chirilishiga qaramay, ilm-fan, madaniyat va savdo markazi sifatida Samarqand o‘z o‘rnini yo‘qotmasdan qolaveradi. XVII asrdagi Samarqandning obodonchiligida Bahodir Yalangto‘shning hissasi ayniqsa kattadir. 1612-yilda uning Samarqandga hokim qilib tayinlanganishi, shaharning madaniy, iqtisodiy salohiyatiga juda katta ta’sir ko‘rsatdi. Uning davrida Samarqandning avvalgi jome’ maschidi va madrasasi, ya’ni Amir Temurning jome’ maschidi va Bibixonim Madrasasi buzilgan bo‘lib, shaharda bunday maschid va madrasalarga ehtiyoj katta edi. Shu davrda Registon maydonida Mirzo Ulug‘bek tomonidan qurilgan karvonsaroy xaroba holda, Muqatta maschidi va Ulug‘bek xonaqosi butunlay yo‘q bo‘lib ketgan va ularning o‘rnida shahar bozori joylashgan edi. Yalangto‘shbiyning tashabbusi va homiylikida shahar qurilish ishlari boshlab yuborildi va bir qancha o‘zgartirishlar kiritildi. Jumladan, uning farmoni bilan

⁸ Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар.- Тошкент, 1994. –Б .228

⁹ Таниева Г. Ялангтўш Баходирнинг Бухоро хонлиги сиёсий барқарорлигини таъминлашдаги ўрни// Ўзбекистон тарихи. 2019, 3-сон.-Б.21.

Mirzo Ulug‘bek madrasasida ta‘mirlash ishlari olib borish, Mirzo Ulug‘bek tomonidan qurilgan xonaqoh, Mirzoyi hammomi va karvon saroylari o‘rnida ikkita hashamatli Sherdor madrasasi (1619-1636) va Tillakori madrasa-maschidi (1646-1660) qurildi. Sherdor madrasasini Yalangto‘sh bahodir piri Xoja Hoshimga bag‘ishlab qurdirgan. Uning peshtoqiga Qur‘oni karimning “An‘om” surasidagi 115-117-oyatlari arabcha matnda yozilgan. Madrasa peshtoqida esa Bahodir Yalangto‘shning nomi va abjad hisobida qasida bitilgan. Madrasa qurilgan vaqtda xalq orasida u “Yalangto‘shbiyning katta madrasasi” deb nom olgan¹⁰.

Tillakori madrasasining qurilishi 14 yil davom etgan, u “oltindan ishlangan“ degan ma‘noni bildiradi. Undan ham maschid, ham madrasa sifatida foydalanishagn. Uning peshtoqlariga arab xatida xattotlar kufiy va suls xatlarida yozuvlar bitishgan. Bulardan tashqari Yalangto‘shbiy Mahdumi A‘zam sharafiga 1618-yilda Dahbedda mozorning janub tomonida bir dahmali xonaqoh, ikki maschid, qirq hujrali madrasa bunyod ettirgan. Yalangto‘sh Bahodirning qilgan bunyodkorlik ishlari Samarqand shahrining kelajakdagi nufuzini belgilab berdi desak xato bo‘lmaydi. Ayniqsa, Registon maydonining butun dunyoga dovrug‘i ketishida bu yaqqol sezilib turadi.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash joizki, Yalangto‘sh Bahodir yoshligidan qo‘rqmasligi, jasurligi bilan hukmron sulola vakillari va pirlarning nazariga tushdi. Harbiy ta‘limni yaxshi egallagani, uni janglarda zafar quchishiga olib keldi va shu bilan bir qatorda, hukmdorga maslahatchi bo‘lishi, uning kelajakda mohir siyosatchi bo‘lib yetishishiga olib keldi. Davlat sarhadlarini himoya qilish uchun Hindiston, Eron, qozoqlar va boshqa bir qator ichki dushmanlarag qarshi kurash olib borishi uning haqiqiy vatanparvar bo‘lganligidan dalolatdir. Sulola hukmdorlarining undan maslahatlar olishi, unga bir qancha yer-mulklar in‘om etilganligi uning davlat boshqaruvida o‘z o‘rniga ega bo‘lganligini bildiradi. U harbiy ta‘lim bilan birga diniy ta‘limni yaxshi egallagan. Samarqandda hokimlik davrida, shaharning kelajak taqdirini belgilab beradigan muhim siyosiy va madaniy tadbirlarni amalga oshirdi. Shaharda keng miqyosda obodonchilik ishlarini olib borish bilan bir qatorda, ilm-fanga ham homiylik qildi. Shu tariqa o‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixida o‘z o‘rni va buyuk xizmatlariga ega yirik davlat arbobi, Yalangto‘sh Bahodirning ta‘rifi yosh avlodlar xotirasida abadiy qolajak.

¹⁰ Абу Тохирхожа Самаркандий. Самария. Б.27. www.ziyo.com кутубхонаси

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абу Тоҳирхожа Самарқандий. Самария. Б.27.www.ziyo.com кутубхонаси
2. Ахмедов Б. Тарихдан сабоқлар.- Тошкент,1994.- Б.228.
3. Ахмедов Б. история Балха.(XVI- первая половина XVIII в).-Ташкент: Фан>>1982.-С.109.
4. Азамат Зиё. Ялангтўш Баҳодир – илм-фан ва маданият ҳомийси// Янги Ўзбекистон. 2021 йил , 3-март.44-сон\
5. Мухаммад Юсуф Муниш. Муқимханская история. Перевод с перс-таджик.,прим. И указ. А.А. Семенова.Т.1956.-С.81-82.
6. Таниева Г. Ялангтўш Баҳодирнинг Бухоро хонлиги сиёсий барқарорлигини таъминлашдаги ўрни// Ўзбекистон тарихи. 2019, 3-сон.-Б.21.
7. Ўзбек тилининг изоҳли лугати .Т: Ўзбекистон миллий энциклопедияси нашриёти.2008-Б.105
8. Yalangto 'sh Bahodir. wikipedia.org. (2018). Ялангтуш Баҳадур. [online]
9. Bahodir Yalangto 'sh. Buxoroisharif.uz. (22.09.2022)